

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**YETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI
JOYLASHTIRISHNING MUQOBIL SHAKLLARINI TANLASH, OILA INSTITUTINI
MUSTAHKAMLASH HAMDA IJTIMOIIY YETIMLIKNING OLDINI OLISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son hamda “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 11-fevraldagi PQ-4185-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

2019 — 2023-yillarda “Mehribonlik” uylarini noinstitutsonallashtirish dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan nomzodlarni (fuqarolarni) tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

2019-yil 1-noyabrdan boshlab yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uyi tashkil etish orqali qabul qilayotgan nomzod fuqarolarni (keyingi o‘rinlarda tutingan ota-onalar deb ataladi) tayyorlash maqsadida “Mehribonlik” uylari va bolalar shaharchalarida Tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslari (keyingi o‘rinlarda Tayyorlov kurslari deb ataladi) tashkil etiladi;

tutingan ota-onalarga Tayyorlov kurslarini tugatganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi;

Tayyorlov kurslari mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun tegishli tarmoq vazirliklari, idoralar va tashkilotlarning ijtimoiy ishlar sohasida tutingan ota-onalarni maslahat yordami, ijtimoiy, huquqiy, psixologik-pedagogik, tibbiy jihatdan kompleks qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi mutaxassislari hamda davlat tarbiya muassasalarining ijtimoiy-psixologik-pedagogik ko‘maklashuv xizmati xodimlari jalb etiladi;

tutingan ota-onalarning Tayyorlov kurslarida o‘qishi bepul tashkil etiladi;

Tayyorlov kurslarining faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi;

2020-yil 1-yanvardan boshlab tutingan ota-onalar Tayyorlov kurslarini tamomlaganlik to‘g‘risidagi hujjati mavjud bo‘lgan fuqarolar orasidan tanlanadi;

2020-yil 1-yanvarga qadar bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olgan va oilaviy bolalar uylarining tarbiyachi ota-onalaridan tayyorlov kurslarini yakunlaganlik to‘g‘risidagi hujjat talab etilmaydi.

3. Quyidagilar tayyorlov kurslarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

tutingan ota-onalarning bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

tutingan ota-onalarni yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik asoslari bilan tanishtirish;

tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish;

tutingan ota-onalarni yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish, sog‘lig‘ini muhofaza qilish, uning ijtimoiylashuvi, ta’limi va har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq ota-onalik salohiyatini shakllantirish;

tutingan ota-onalarning bolani oilaga qabul qilishga tayyorlik darajasini aniklash, bolani oilaga qabul qilish shaklini tanlashga yordam berish, shuningdek, bolani tarbiyalash va rivojlanishi bilan shug'ullanish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan muammo va qiyinchiliklarni anglashga ko'maklashish, ularning bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish.

4. Tutingan ota-onalarni tayyorlash to'g'risidagi nizom [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin va 2019-yil 1-noyabrdan boshlab amalga kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda 2019-yil 1-oktabrga qadar:

Tayyorlov kurslarining mashg'ulotlari dasturini ishlab chiqsin;

Tayyorlov kurslari o'qituvchilari uchun trening mashg'ulotlari o'tkazilishini ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarni tanlashda ularga qo'yiladigan talablarga har tomonlama mos bo'lgan nomzodlarni (shaxslarni) tanlash hamda hisobga olish, shuningdek, nomzodlarni topish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish choralari ko'rsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur qarorning amalga oshirilishi uchun zarur mablag'larni 2019-yilda "Ta'lim" sohasi uchun ajratilgan mablag'lar doirasida ajratsin, 2020-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining parametrlarida har yili nazarda tutsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.A. Abduxakimov va O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sh.X. Shermatov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2019-yil 30-sentabr,
824-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 824-son qaroriga
1-ILOVA

2019 — 2023-yillarda "Mehribonlik" uylarini noinstitutsonallashtirish

DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Ijroga mas'ullar	Moliyalashtirish manbai	Amalga oshirish mexanizmi va kutilayotgan natija
I. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimi tahlili hamda tizimda axborot texnologiyalarini joriy etish					
1.	Vasiylik va homiylik organining ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishga oid faoliyatini o'rganish.	2019-yil noyabr	Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, Bosh prokuratura	-	1. O'rganish natijalari yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. 2. Bolalarni ota-ona qaramog'idan mahrum

					<p>bo'lishining asosiy sabablarini aniqlash va ularni joylashtirish shaklini tanlashda qonuniy to'g'ri qaror qabul qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.</p> <p>3. Ijtimoiy xavfli sharoitda qolgan bolani himoya qilish, bolani oilada qoldirish va oilani krizis davrini yengib o'tishida tezkor yordam ko'rsatish va erta aralashuvdagi to'siqlarni aniqlash.</p> <p>4. Vasiylik va homiylik organi mutaxassisining ish vaqti va bajaradigan ish yuklamasini hamda faoliyat samaradorligiga erishishdagi muammolarni tahlil qilish.</p>
2.	Oila va bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini o'rganish.	2019-yil noyabr	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	-	<p>1. Oila va bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini atroflicha o'rganish.</p> <p>2. O'rganish yakunlari bo'yicha aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy-huquqiy va psixologik-pedagogik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash.</p> <p>3. Zaruratga ko'ra, oila va bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda ijtimoiy-huquqiy va psixologik-pedagogik xizmat turlarini joriy etish va kengaytirish.</p>
3.	Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan Bolalar uylari, "Mehribonlik" uylari va Bolalar shaharchalari faoliyatini o'rganish.	2019-yil noyabr	Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat	-	<p>1. Bolalar uylari, "Mehribonlik" uylari va Bolalar shaharchalari faoliyatini o'rganish bo'yicha tahliliy ma'lumot tayyorlash.</p> <p>2. Oilaga qaytariladigan yoki</p>

			<p>vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi</p>		<p>tutingan oilaga joylashtiriladigan bolalar ro‘yxatini shakllantirish. 3. Bolalar uylari, “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalari moddiy-texnik sharoitlari hamda kadrlar salohiyatini tahlil qilish. 4. Tarbiyalanuvchilarni oilaga qaytarishda ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatadigan tashkilotlar faoliyatini o‘rganish. 5. Faoliyati bosqichma-bosqich o‘zgartiriladigan yoki tugatiladigan Bolalar uylari va “Mehribonlik” uylarini aniqlash. 6. Bolalarning oilada va Bolalar uylari, “Mehribonlik” uylari, Bolalar shaharchasida ijtimoiy himoyasi uchun ajratiladigan mablag‘larni iqtisodiy tahlil qilish. 7. O‘rganish va tahlil qilish natijalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>
4.	<p>Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bo‘qar uchun davlat tarbiya muassasalari faoliyatini maqbullashtirish (optimallashtirish) sohasidagi xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish.</p>	2019-yil dekabr	<p>Xalq ta‘limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, YUNISEF bolalar jamg‘armasi</p>	<p>Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Xalq ta‘limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari</p>	<p>1. Yevropa davlatlarining noinstitutallashtirish, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun davlat muassasalari faoliyatini optimallashtirish sohasidagi tajribalarini o‘rganish. 2. O‘rganish yakunlari natijasida tahliliy ma‘lumotnoma tayyorlash va respublikada faoliyat olib borayotgan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun davlat muassasalari</p>

					faoliyatini optimallashtirish bo'yicha asoslanirilgan takliflar ishlab chiqish.
5.	Vasiylik va xomiylik organi hisobida turgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risida yagona elektron bazani yaratish va shakllantirish tartibini ishlab chiqish.	2020-yil avgust	Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Davlat statistika qo'mitasi	Xalq ta'limi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari, imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar	<p>1. Vasiylik va homiylik organlari faoliyatida ma'lumotlar bazasining elektron dasturi ta'minotini ishlab chiqish.</p> <p>2. Vasiylik va homiylik organlari xodimlarini zamonaviy kompyuter va internet resurslari bilan ta'minlash hamda mutaxassislarni elektron dasturdan foydalanish bo'yicha kasbiy salohiyatini oshirish.</p> <p>3. Vasiylik va homiylik organlari hisobida turgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risida shakllantirilgan va yangilanadigan yagona ma'lumotlar bazasini yaratish.</p>
6.	Bolani oilaga tarbiyaga (patronat) vasiylik yoki homiylik, farzandlikka olish, Oilaviy bolalar uyining tarbiyalovchi ota-onasi bo'lish istagini bildirgan fuqarolar haqidagi yagona ma'lumotlar bazasini yaratish.	2021-yil aprel	Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari, imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar	<p>1. Bolani oilaga tarbiyaga olish istagini bildirgan fuqarolarning yagona ma'lumotlari bazasini yaratish va uni muntazam ravishda yuritib borish.</p> <p>2. Vasiylik va homiylik organlarining yagona ma'lumotlar bazasidan keng omma foydalanishiga erishish.</p> <p>3. Vasiylik va homiylik organlarining shaffof ishlashini ta'minlash, korrupsiya va suiiste'mol qilish holatlarining oldini olish.</p>
II. Ijtimoiy yetimlikning oldini olish sohasidagi dolzarb masalalar va "Mehribonlik" uylarini noinstitutsonallashtirish dasturining mohiyatini aholi va jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish					
7.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari	2019-yil noyabr	Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash	-	1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari

	<p>rahbarlari hamda bolalar taqdirini hal etishda ishtirok etuvchi organlar vakillari bilan “Mehribonlik” uylarini noinstitutsonallashtirish dasturining mohiyatini keng targ‘ib qilish, bolalarning oilaviy muhitda yashashini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazish.</p>		<p>vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, “Sen yolg‘iz emassan” Republika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Bosh prokuratura, Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>		<p>rahbarlarini noinstitutsonallashtirish dasturidan ko‘zlangan maqsad hamda bu sohadagi xorijiy davlatlar tajribasi bilan tanishtirish. 2. Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun davlat muassasalari hamda vasiylik va homiylik organlarida olib borilgan tadqiqot natijalari bilan tanishtirish. 3. Har bir tuman, shahar va viloyat hokimliklarida “Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida noinstitutsonallashtirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar”ni ishlab chiqish orqali kam ta‘minlangan oilalar bolalarini Bolalar uylari, “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalariga joylashtirilishining oldini olish ishlarini kuchaytirish. 4. Noinstitutsonallashtirish o‘tkazilishi zarurligi jamoatchilik tomonidan tan olinishiga erishish maqsadida bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida faoliyat yurituvchi soha mutaxassislarining xabardorlik darajasini oshirish.</p>
8.	<p>Bolaning oilaviy muhitda yashash va rivojlanishga bo‘lgan huquqi, oila qadriyatlarini, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarga yordam ko‘rsatishning</p>	<p>2019-yil oktyabrdan boshlab muntazam ravishda</p>	<p>MTRK, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar</p>	<p>Respublika budjeti mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning</p>	<p>1. Qiyin hayotiy vaziyatga tushgan oilalar muammolari, oilaviy inqirozni bartaraf etishda davlat organlari va jamoatchilikni faollashtirish.</p>

	zaruriyati hamda bunday yordam shakllarini yorituvchi ijtimoiy reklama yaratish va taqdim etish.		agentligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi	homiyluk xayriyalari	2. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun muassasa tarbiyalanuvchilarining orzu va armonlari, institutsionalizatsiyaning salbiy oqibatlari haqida keng jamoatchilik xabardorligini oshirish.
9.	Ota-ona mehri va g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalar muammolari, ota-onalarning o'z majburiyatlarini bajarishdagi mas'uliyatsizligi oqibatlari, ota-ona nazorati, mehri va g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bolalarga vasiylik belgilashning muhimligi, ularni joylashtirishning muqobil shakllari haqida teleko'rsatuv va radioeshittirishlar tayyorlash.	muntazam ravishda	Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, MTRK, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi	Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari, imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar	1. Ota-onalarning farzand tarbiyasi, ta'minoti va parvarishidagi mas'uliyatini oshirish. 2. Bolalarning oilaviy muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash, ularni joylashtirishning muqobil shakllari to'g'risida keng jamoatchilik xabardorligini oshirish. 3. Ijtimoiy ko'rsatuv yoki eshittirishlar ichida "Bolaning begonasi bo'lmaydi" ruknini yuritish.
III. Bolaning ota-onasidan ajratilishi va oilaviy muammolarning bartaraf etilishiga yo'naltirilgan faoliyatni kuchaytirish					
10.	Yangi tug'ilgan boladan voz kechmoqchi bo'lgan ayollar bilan profilaktika ishlariga yo'naltirilgan ijtimoiy va psixologik kuzatuv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. Mazkur dasturlar ijrosini ta'minlash.	2019-yil noyabr muntazam ravishda	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen yolg'iz emassan" Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi	Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiyluk xayriyalari	1. Tug'ruq komplekslari, perinatal markazlari qoshidagi "Onalar maktablari" faoliyatida farzandidan voz kechuvchi onalar bilan ishlash dasturlarini joriy etish. 2. Tug'ruq komplekslari, perinatal markazlarida seminar treninglar tashkil etish yo'li orqali mas'ul mutaxassislarni farzandidan voz kechuvchi onalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy

					<p>texnologiyalariga o'rgatish.</p> <p>3. Tibbiyot muassasalarida onalarning yangi tug'ilgan bolalardan voz kechishining oldini olishga qaratilgan psixologik-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy choralar ko'rish.</p> <p>4. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan ayollarga ijtimoiy yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini kuchaytirish.</p>
11.	<p>Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan farzandlari bor oilalarga joylardagi oilaviy poliklinika, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida erta tibbiy-psixologik, pedagogik, ma'naviy, huquqiy yordam ko'rsatilishini kuchaytirish.</p>	<p>Patronaj tashrif davomida, muntazam ravishda</p>	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, "Sog'lom avlod uchun" fondi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi</p>	-	<p>1. Bolalar nogironligining oldini olish ishlarini kuchaytirish.</p> <p>2. Ijtimoiy yetimlikning, ya'ni ota-onalar tomonidan bolalarni yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish muassasalariga joylashtirilishining oldini olish choralarini ko'rish.</p> <p>3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan chaqaloqlari bor oilalarga muntazam kompleks (psixologik-pedagogik, tibbiy-ijtimoiy, huquqiy va b.) yordam ko'rsatishni tashkil qilish.</p> <p>4. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyalayotgan oilalarga bolada jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun moddiy ko'mak ko'rsatish ishlarini kuchaytirish.</p>
12.	<p>An'anaviy oila qadriyatlari, oila munosabatlari, ota-ona</p>	<p>Har chorakda</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-</p>	-	<p>1. Aholi va yoshlar orasida oila qadriyatlari, sog'lom turmush tarzi va</p>

	majburiyatining anglanilishi, bolaning oilada yashashga bo'lgan huquqini ta'minlash va ijtimoiy yetimlikni oldini olish (bartaraf etish)ga qaratilgan tadbirlar o'tkazish.	kamida bir marotaba	quvvatlash vazirligi, O'zbekiston Xotin qizlar qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy markazi, "Sen yolg'iz emassan" Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi		ijtimoiy yetimlikning oldini olishga qaratilgan davra suhbatlari, uchrashuvlar, savol-javoblar, leksiyalar orqali tashviqot ishlarini olib borish. 2. Yoshlar va yosh oilalar o'rtasida mas'uliyatni oshirish, ijtimoiy yetimlikning oldini olish.
13.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va bolalarga xizmat ko'rsatish masalalari bilan shug'ullanuvchi xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.	reja asosida	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	Respublika budjeti mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	1. Oliy ta'lim muassasalari tizimida ijtimoiy xodimlarni tayyorlash ishlarini kengaytirish. 2. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va bolalarga ijtimoiy xizmatlarni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilot, muassasalar mutaxassislarini "Ijtimoiy ish" bo'yicha qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.
IV. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga joylashtirishning muqobil shakllarini rivojlantirish					
14.	Oilaga tarbiyaga olingan (patronat), vasiylik yoki homiylikka, farzandlikka olingan, Oilaviy bolalar uylari va boshqa yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun davlat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar uchun yaratilgan sharoitlar sifatini baholashning minimal standartlarini ishlab chiqish.	2019-yil noyabr	Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, SOS Bolalar mahallalari assotsiatsiyasi, YUNISEF bolalar jamg'armasi, Vatandosh jamg'armasi	Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	1. "Tutingan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar uchun yaratilgan sharoitlar sifatini baholashning minimal standartlari" va "Yetim va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun muassasalardagi minimal majburiy standartlar" uslubiy yo'riqnomani ishlab chiqish. 2. Mazkur yo'riqnoma asosida Vasiylik va homiylik organlari hamda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ta'lim-tarbiya va davolash-

					sogʻlomlashtirish muassasalari faoliyatini tashkil qilish. 3. Tutingan oilalar va davlat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning taʼlim-tarbiyasi, rivojlanishi, taʼminoti sifati samaradorligini oshirish.
15.	Ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning huquqlarini himoya qilish va oilaga joylashtirishning muqobil shakllarini tatbiq etish yuzasidan vasiylik va homiylik organlari mutaxassislari uchun uslubiy qoʻllanmalar ishlab chiqish.	2019-yil noyabr	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Xalq taʼlimi vazirligi, Bosh prokuratura, YUNISEF bolalar jamgʻarmasi, “Sen yolgʻiz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamgʻarmasi	Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi Xalq taʼlimi sohasidagi islohotlarga koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari	1. Yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning huquqlarini himoya qilishda vasiylik va homiylik organlari faoliyatini uslubiy taʼminlash. 2. Vasiylik va homiylik belgilanishiga muhtoj bolalarni oilaga joylashtirishning muqobil shakllarini rivojlantirish.
16.	Tutingan oila va bolaning ijtimoiy va psixologik moslashuvini taʼminlash maqsadida ijtimoiy, psixologik-pedagogik kuzatib borish mexanizmi — dasturini ishlab chiqish.	2019-yil noyabr	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Xalq taʼlimi vazirligi, YUNISEF bolalar jamgʻarmasi, Vatandosh jamgʻarmasi	Jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	1. Bolalarni tutingan oilaga moslashuvi boʻyicha kompleks ijtimoiy, psixologik-pedagogik va konsultativ xizmatlar koʻrsatish mexanizmini tartibga solish. 2. Bolalarning tutingan oilalardan muassasalarga qaytishining oldini olish choralarini kuchaytirish.
17.	Vasiylik va homiylik organlari mutaxassislari va ijtimoiy xodimlar uchun ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni oilaga joylashtirishning muqobil shakllarini rivojlantirish masalalari boʻyicha oʻquv seminarlarini tashkil etish.	Reja asosida	Xalq taʼlimi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, YUNISEF bolalar jamgʻarmasi, “Sen yolgʻiz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamgʻarmasi	-	Bolalarni oilaga joylashtirishning muqobil shakllarini rivojlantirishda vasiylik va homiylik organlari mutaxassislari va ijtimoiy xodimlarning kasbiy mahorati (salohiyati)ni oshirish.
18.	Kasbiy salohiyatli tutingan (foster) oilalarni tashkil etish boʻyicha chet el	2019-yil dekabr	Xalq taʼlimi vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot	Xalq taʼlimi vazirligi huzuridagi	1. Kasbiy salohiyatli tutingan (foster) oilalarni tashkil etish boʻyicha chet el tajribasini tahlil qilish

	tajribasini tahlil qilish va o'rganish.		va sanoat vazirligi, Adliya vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, YUNISEF bolalar jamg'armasi, Vatandosh jamg'armasi	Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	va o'rganish maqsadida manfaatdor vazirlik, idoralar va boshqa tashkilotlar vakillaridan iborat Ishchi guruhini tashkil etish. 2. Ishchi guruh tomonidan kasbiy salohiyatli tutingan (foster) oilalar masalasiga taalluqli AQSh va Yevropa davlatlarining tajribasini joyiga borib o'rganishni tashkil etish. 3. Ishchi guruhning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlar uchun tegishli mablag'lar ajratish. 4. O'rganish yakunlari bo'yicha O'zbekistonda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning oilaviy shakllarining turlarini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar belgilash.
19.	Kasbiy salohiyatli tutingan (foster) oilalar tajribasini pilot tarzida joriy qilish.	2020-yil ♦art oyidan boshlab Muntazam ravishda	Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Adliya vazirligi, YUNISEF bolalar jamg'armasi, Vatandosh jamg'armasi	Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari	Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun faoliyati tugatilayotgan ta'lim-tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish muassasalari tarbiyachilaridan kasbiy salohiyatli tutingan (foster) tarbiyachilar sifatida foydalanishni yo'lga qo'yish.
V. Institutsional muassasalar tarbiyalanuvchilarining oilaviy muhitda reintegratsiyalashuvi					
20.	"Bolalar uylari", "Bolalar shaharchalari", "Mehribonlik" uylari, "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi tizimidagi muassasalar tarbiyalanuvchilarini qondosh oilalariga	2019-yil noyabrdan boshlab muntazam ravishda	Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-	Respublika budjeti mablag'lari	1. Institutsional muassasalar tarbiyalanuvchilarining oilaviy muhitga reintegratsiyalashuvi bo'yicha ilmiy-uslubiy bazani mustahkamlash. 2. Ijtimoiy xodimlarga, pedagog-

	qaytarish yoki tutingan oilalarga joylashtirishga yo'naltirilgan ishlarni faollashtirish.		quvvatlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, "SOS — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi		tarbiyalanuvchilarga, psixologlarga ota-onalar bilan ishlash, ota-onalarni izlash, qarindoshlik munosabatlarini tiklash, hissiy bog'langanlik hissini shakllantirish, ota-onaning bolani oilaga qaytarib olishga tayyorlash, bolalarni oilaviy hayotda yashashga tayyorlash kabi ijtimoiy ish ko'nikmalarini o'rgatish. 3. Bolani oilaga qaytarish/joylashtirishda oilaning imkoniyatlarini va mahalliy resurslarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash. 4. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani oilaga qabul qilishi mumkin bo'lgan oilalarni tanlash, ularni ijtimoiy, psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlash. 5. Ota-onalar mas'uliyatini oshirish, ota-ona va bolalar munosabatlarini tiklash va bolalarni ota-onasiga qaytarish ishlarini faollashtirish.
21.	Oila muhitiga berilgan (reintegratsiyalangan) bolalarning moslashish, rivojlanish darajasini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish.	Har 6 oyda bir marotaba	Xalq ta'limi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi	-	1. Bolaning qondosh oilasiga qayta moslashish yoki oila o'rnini bosuvchi tutingan oilada muvaffaqiyatli moslashish darajasini aniqlash. 2. Oila o'rnini bosuvchi tutingan oilalarning ijtimoiy, psixologik-pedagogik kuzatuvini tashkil qilish.
VI. Institutsional muassasalarni tugatish va qayta tashkil etish					
22.	Oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy yetimlikning oldini olish, shuningdek, "Mehribonlik" uylarini	2020 — 2023-yillar	Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi,	Respublika ?yudjeti mablag'lari,	1. Institutsional muassasalarga kelib tushayotgan bolalar sonini qisqartirish.

	bosqichma-bosqich kam kompleksli Bolalar shaharchalariga hamda muassasalarning boshqa muqobil shakllariga o'tkazish.		“Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	2. “Mehribonlik” uylarini tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib maqbullashtirish. 3. Respublika bo‘yicha “Mehribonlik” uylarini bosqichma-bosqich kam kompleksli Bolalar shaharchalariga aylantirish: 2020-yilda 2 ta; 2021-yilda 4 ta; 2022-yilda 6 ta; 2023-yilda 7 ta. 4. Faoliyati tugatilgan muassasa pedagog xodimlari tarkibidan yoki vasiylik va homiylik organida bolani oilaga tarbiyalashga qabul qilish istagini bildirgan shaxslar orasidan kasbiy salohiyatli tutingan oilalarning tashkil etilishini yo‘lga qo‘yish.
23.	Institutsional muassasalarni kunduzgi tashrif markazlari, krizis markazlari, oila va bolalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari, moslashuv markazlari, oilaga joylashtirish xizmatlari, dam olish markazlari sifatida qayta tashkil etish ishlarini rejali bajarish.	2022-yil iyul	Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, “Sen yolg‘iz emassan” Respublika jamoatchilik bolalar jamg‘armasi, Bosh prokuratura, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari	Respublika budjeti mablag‘lari, imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	1. Yetim va ota-onasiz qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun faoliyati modernizatsiyalashtirilgan ta’lim-tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish muassasalarida ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan yangi xizmatlarni rejalashtirish. 2. Institutsional muassasalarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi krizis markazlari, oila va bolalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari, moslashuv markazlari, oilaga joylashtirish xizmatlari, dam olish markazlariga aylantirish (o‘zgartirish).
24.	Xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ish bilan ta’minlash yuzasidan tegishli choralar ko‘rish.	2020 — 2023-yillar	Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliq va	Respublika budjeti mablag‘lari, imtiyozli xorijiy kreditlar va grantlar	1. Tugatilayotgan muassasalar xodimlarini kasbga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish masalalarini hal qilish.

			o'rtta maxsus ta'lim vazirligi		2. Yangi tipda tashkil etilgan muassasalarda bolalar va oilalar bilan ishlashda kasbiy tajribaga ega mahoratli xodimlarni ish bilan ta'minlash.
--	--	--	--------------------------------	--	---

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-iyundagi 391-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 824-son qaroriga
2-ILOVA

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan nomzodlarni (fuqarolarni) tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni (keyingi o'rinlarda bola deb ataladi) tarbiyalash uchun oilaga qabul qilayotgan (vasiylikka, homiylikka, oilaga tarbiyaga (patronat), oilaviy bolalar uyiga olayotgan) nomzod fuqarolarni (keyingi o'rinlarda nomzodlar deb ataladi) tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Nomzodlarni tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Vasiylik va homiylik organi aholi o'rtasida bolani oilaga joylashtirishning ustuvorligi, ular uchun nomzodlarni topish bo'yicha ommaviy targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshiradi, bolalarni oilaga qabul qilishning shakllari, tartibi haqida fuqarolarni xabardor qiladi.

2-bob. Nomzodlarni tanlash

3. Bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlar ushbu Nizomga **ilovadagi** sxemaga muvofiq tanladi.

4. Bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlar o'zining yashash joyi bo'yicha vasiylik va homiylik organiga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq talab etiladigan hujjatlarni taqdim etiladilar.

Bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uylarini tashkil qilayotgan ota-onalar belgilangan hujjatlardan tashqari tutingan ota-onalarni tayyorlash kurslarida (keyingi o'rinlarda tayyorlov kurslari deb ataladi) o'qiganligi haqidagi sertifikatni ham taqdim etadilar.

5. Vasiylik va homiylik organi bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlardan ariza hamda tegishli hujjatlarni qabul qilgan kundan boshlab yetti kun mobaynida ularning turmush va ta'minot sharoitlarini o'rganib chiqadi hamda bu haqda tegishli dalolatnoma tuzadi.

Nomzodlarning turmush va ta'minot sharoitlari o'rganilayotganda vasiylik va homiylik organi turar joyning maishiy-ho'jalik sharoitlarini, ariza beruvchining sog'lig'ini, shaxsiy fazilatlarini va bolani oilaga olishga undagan sabablarni, ularning bolani tarbiyalash bo'yicha qobiliyatlarini, oilada yashovchilarning bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilinishiga nisbatan munosabatini o'rganadi.

Nogironligi bo'lgan bola oilaga tarbiyalash uchun qabul qilinayotganda dalolatnomada bolaning yashashi uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligi aks ettirilishi lozim.

6. Vasiylik va homiylik organi o'rganish yakunlari bo'yicha uch ish kuni mobaynida bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarni nomzod bo'la olishi mumkinligi (mumkin emasligi) to'g'risida xulosa tayyorlaydi.

Bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarni nomzod bo'la olishi mumkinligi to'g'risida xulosa tayyorlashga quyidagilar asos hisoblanadi:

taqdim qilingan hujjatlarning qonunchilik talablariga muvofiqligi;
tayyorlov kurslarida o'qiganligini tasdiqlovchi sertifikatning mavjudligi (bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uylarini tashkil qilayotgan ota-onalar uchun);
bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarning bolani tarbiyalashda qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarini bajara olish imkoniyatlari;
nomzodlarning psixologik holati va bola tarbiyalashda yetarlicha ko'nikmalari mavjudligi;
bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarning bolaga huquqiy, ijtimoiy, psixologik-pedagogik va tibbiy yordam ko'rsatish borasida bilim va ko'nikmaga egaligi.

7. Vasiylik va homiylik organi bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarni tanlash jarayonida, zaruratga ko'ra, quyidagi manfaatdor va ishga aloqador shaxslarni jalb etishi mumkin:

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari;
voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya a'zolari;
tayyorlov kurslari ekspertlari;
yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan davlat tarbiya muassasa mutaxassislari;
bolaning qarindoshlari.

3-bob. Bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uylarini tashkil qilayotgan ota-onalarni tayyorlash

8. Bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uylarini tashkil qilayotgan ota-onalar tayyorlov kurslarida belgilangan tartibda tayyorgarlikdan o'tadilar.

9. Bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uylarini tashkil qilayotgan ota-onalarni tayyorlashda quyidagilar nazarda tutiladi:

nomzodlarning bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilishga tayyorlash, bolaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular uchun qulay sharoitlarni yaratish bilan bog'liq salohiyatlarini shakllantirish;

nomzodlarning bolani oilaga qabul qilishga tayyorlik darajasini aniqlash, bolani oilaga qabul qilgach, ularni tarbiyalash va rivojlanishi bilan shug'ullanish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan muammo va qiyinchiliklarni anglashga ko'maklashish, bolalar psixologiyasi sohasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish;

bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik asoslari, tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish, davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordam turlaridan xabardorlik darajasini oshirish.

10. Tayyorlov kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan bolani tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzodlarga tegishli sertifikat beriladi.

11. Sertifikat nomzodlarni tutingan ota-onalar bo'la olishi haqidagi xulosa berilishi va hisobga qo'yilishi uchun asos bo'ladi.

4-bob. Tutingan ota-onalarni kuzatib borish hamda nazorat qilish

12. Bolalarni vasiylikka, homiylikka, oilaga tarbiyaga (patronat) hamda oilaviy bolalar uyiga olgan fuqarolarga (keyingi o'rinlarda tutingan ota-onalar deb ataladi) tarbiyalash uchun berilgan bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, uning turmush sharoitlari va tarbiyalanishini nazorat qilish bolaning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organi tomonidan olib boriladi.

13. Tutingan ota-onalarning faoliyatini kuzatish, ular tomonidan o'z majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish bolaning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organi tomonidan rejali va rejadan tashqari shaklda amalga oshiriladi.

14. Tutingan ota-onalarni rejali kuzatish va nazorat qilish tutingan ota-onalarning xonadoniga tashrif buyurgan holda quyidagicha amalga oshiriladi:

bola oilaga berilgandan so'ng dastlabki uch oy davomida bir marotaba;
bola oilaga berilgandan so'ng har yili kamida ikki marotaba.

15. Tutingan ota-onalarni rejadan tashqari kuzatish va nazorat qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin.
16. Vasiylik va homiylik organi tutingan ota-onalarni rejali va rejadan tashqari kuzatish va nazorat qilishda quyidagilarni jalb qilishi mumkin:
fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillarini;
voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya a'zolarini;
tayyorlov kurslari ekspertlarini;
yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan davlat tarbiya muassasa mutaxassislarini;
bolaning qarindoshlari va boshqalarni.
17. Rejali va rejadan tashqari kuzatish va nazorat qilishda quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratiladi:
bolaning yashashi uchun sharoitlar mavjudligi;
xonadonning maishiy-xo'jalik sharoitlari;
bolaning oila muhitiga va oila a'zolarining bola xulqi va xarakteriga moslashganligi;
bolaning tarbiyasi, ta'limi, aqliy rivojlanishi, sog'lig'i, tashqi ko'rinishi, gigiyenaga rioya qilinishi, xulqi, emotsional hamda jismoniy rivojlanishi;
bolaning alohida qiziqish va qobiliyatlarining qo'llab-quvvatlanishi;
oilalarning munosabatlari va boshqalar.
Bolaning mulkiy va nomulkiy huquqlari ta'minlanganligiga alohida e'tibor qaratiladi.
18. Kuzatish va nazorat qilish ishlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan Oilada tarbiyalanayotgan bolalar uchun yaratilgan sharoitlarni baholashning minimal standartlari asosida amalga oshiriladi.
19. Kuzatish va nazorat qilish natijalari bo'yicha vasiylik va homiylik organi tomonidan bolaning turmush sharoitlari va tarbiyalanishi to'g'risida kompleks baholashga asoslangan hisobot aks ettirilgan dalolatnoma tuziladi.
20. Kuzatish va nazorat qilish davomida bolaning tarbiyasi yoki rivojlanishi, huquqlari ta'minlanishi bilan bog'liq muammo yoki kamchiliklar aniqlangan taqdirda, vasiylik va homiylik organi tegishli davlat va nodavlat tashkilotlarini jalb qilgan holda, muammoni bartaraf etishga qaratilgan maslahat, psixologik-pedagogik, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa ijtimoiy xizmatlar tashkil etilishini ta'minlaydi.
21. Tutingan ota-onalar tomonidan o'zlariga yuklatilgan majburiyatlar bajarilmaganligi yoki bolaning huquq va qonuniy manfaatlari ta'minlanmaganligi bilan bog'liq dalillar aniqlangan taqdirda, vasiylik va homiylik organi o'rganish dalolatnomasida quyidagilarni aks ettiradi:
bolaning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaxshilash hamda majburiyatlarni bajarish yuzasidan ko'rsatma va tavsiyalar;
tutingan ota-onalarga yuklatilgan majburiyatlarni yetarli darajada bajarilmaganligi yoki umuman bajarilmaganligi sababli ularni javobgarlikka tortish yuzasidan takliflar (zarurat bo'lganda).
22. Tutingan ota-onalar tomonidan harakatlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga zid ravishda amalga oshirilayotgan taqdirda yoxud uning harakatlari bolaning sog'lig'i, jismoniy, psixologik, ahloqiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazayotgan bo'lsa, shuningdek, nazoratli tekshiruv mobaynida aniqlangan kamchiliklarni bolani oiladan ajratib olmay hal qilib bo'lmasligi ma'lum bo'lganda, vasiylik va homiylik organi tekshiruv o'tkazilgandan so'ng uch kun ichida:
tutingan ota-onalarni belgilangan majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirish hamda bolani oiladan olish haqida qaror qabul qiladi;
bolani vaqtincha joylashtirish choralarini ko'radi;
bolani boshqa tutingan ota-onalarga berish yoki yetim bola va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan muassasalarga joylashtirish choralarini ko'radi.
23. Yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan tutingan ota-onalar qaramog'idagi bolani tarbiyalash, parvarishini ta'minlash bilan bog'liq majburiyatlarini yetarli darajada bajarmayotganligi

yoxud bola huquq va qonuniy manfaatlarining buzilishi haqidagi murojaatlar kelib tushgan taqdirda, vasiylik va homiylik organi rejadan tashqari nazoratni amalga oshiradi.

24. Bolaning yashash manzili o'zgarganda yangi manzil joylashgan hududdagi vasiylik va homiylik organi bolaga tegishli shaxsiy hujjatlar yig'majildini qabul qilgan kundan 7 kun ichida rejadan tashqari nazoratni amalga oshirishi shart.

25. O'rganish dalolatnomasi nazoratli tekshiruv amalga oshirilgan kundan boshlab 5 kun ichida rasmiylashtiriladi, o'rganishda ishtirok etgan tomonlar hamda vasiylik va homiylik organi tomonidan imzolanadi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Dalolatnoma kamida ikki nusxada rasmiylashtiriladi, bitta nusxasi vasiylik va homiylik organida, ikkinchisi tutingan ota-onada hamda boshqa vakolatli shaxslarda saqlanadi.

26. O'rganish dalolatnomasi qat'iy nazoratdagi hujjat bo'lib, bolaning shaxsiy hujjatlari yig'majildida saqlanadi.

4-bob. Yakunlovchi qoida

27. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan nomzodlarni (fuqarolarni) tanlash, kuzatib borish hamda nazorat qilish tartibi to'g'risida [nizomga](#)

ILOVA

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga qabul qilayotgan nomzodlarni (fuqarolarni) tanlash

SXEMASI

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Vasiylik va homiylik organi	Aholi o'rtasida bolani oilaga joylashtirishning ustuvorligi, ular uchun nomzod vasiy va homiylarni izlash bo'yicha ommaviy targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish. Bolalarni oilaga qabul qilishning shakllari, tartibi haqida fuqarolarni xabardor qiladi.	Muntazam
2-bosqich	Bolalarni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish istagini bildirgan fuqarolar	O'zining yashash joyi bo'yicha vasiylik va homiylik organiga bolani oilaga tarbiyaga olish uchun nomzod sifatida hisobga olinishini so'rab ariza bilan murojaat qiladi.	Xohishiga qarab
3-bosqich	Vasiylik va homiylik organi	1. Bolani tarbiyalash uchun oilasiga qabul qilish istagini bildirgan fuqarolardan ularning turmush va ta'minot sharoitlarini o'rganib chiqadi hamda bu haqda tegishli dalolatnoma tuzadi. 2. O'rganish yakunlari bo'yicha bolani tarbiyalash uchun oilasiga qabul qilish istagini bildirgan fuqaroning nomzod bo'la olishi mumkinligi to'g'risida xulosa tayyorlaydi.	Ariza qabul qilingan kundan boshlab yetti kun mobaynida Uch kun mobaynida

Tutingan ota-onalarni tayyorlash to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni (keyingi o'rinlarda bola deb ataladi) oilaga tarbiyaga (patronat) olayotgan yoki oilaviy bolalar uyi tashkil qilayotgan fuqarolarni (keyingi o'rinlarda tutingan ota-onalar deb ataladi) tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Tayyorlov kurslari yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun davlat tarbiya muassasasi (keyingi o'rinlarda davlat tarbiya muassasa deb ataladi) negizida tashkil etiladi.

Tayyorlov kurslari oila va bolalarga xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ham tashkil etilishi mumkin.

Tayyorlov kurslarining faoliyati vasiylik va homiylik organlari tomonidan nazorat qilinadi.

2-bob. Tayyorlov kurslarining maqsadi va vazifalari

3. Tayyorlov kurslarining asosiy maqsadi:

bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlashda tutingan ota-onalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog'lomlashtirish bo'yicha tutingan ota-onalarning kasbiy bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalarini oshirish;

oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish.

4. Quyidagilar tayyorlov kurslarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tutingan ota-onalarning bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasidagi bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish;

tutingan ota-onalarni bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik asoslari bilan tanishtirish;

tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish;

tutingan ota-onalarni bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish, sog'lig'ini muhofaza qilish, uning ijtimoiy moslashuvi, ta'limi va har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni yaratish bilan bog'liq ota-onalik salohiyatlarini shakllantirish;

tutingan ota-onalarning bolani oilaga qabul qilishga tayyorlik darajasini aniqlash, bolani oilaga qabul qilish shaklini tanlashga yordam berish, shuningdek, bolani tarbiyalash va rivojlanishi bilan shug'ullanish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan muammo va qiyinchiliklarni anglashga ko'maklashish.

3-bob. Tayyorlov kurslarini tashkil etish tartibi

5. Tayyorlov kurslari tashkil etilayotgan tuman (shahar) hokimligi tayyorlov kurslarining muassasi bo'ladi.

Tayyorlov kurslari muassisning qarori asosida tashkil etiladi.

Nodavlat tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar nodavlat tayyorlov kurslarining muassasi bo'lishi mumkin.

Nodavlat tayyorlov kurslari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda tayyorlov kurslari tashkil etilayotgan tuman (shahar) hokimligi bilan kelishgan holda tashkil etiladi.

6. Tayyorlov kurslarining ustavi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

7. Tayyorlov kurslarining faoliyati Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va davlat tarbiya muassasasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

8. Davlat tarbiya muassasasida tashkil etilgan tayyorlov kurslari faoliyatiga ushbu muassasa direktorining ijtimoiy himoya bo'yicha o'rinbosari rahbarlik qiladi.

9. Tayyorlov kurslarida guruhlar bolalarni oilaga qabul qilish istagini bildirgan nomzod fuqarolar (keyingi o‘rinlarda tinglovchi deb ataladi) hisobidan shakllantiriladi.

10. Tinglovchilar tayyorlov kurslarida bepul o‘qitiladi.

11. Tinglovchilar tayyorlov kurslarida o‘qish uchun kurs tashkil etilgan davlat tarbiya muassasasi direktori nomiga ariza bilan murojaat etadilar.

Ariza uch ish kunida davlat tarbiya muassasasi direktori tomonidan ko‘rib chiqiladi va tegishli buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Ariza bilan murojaat etgan nomzod fuqarolar alohida jurnalda ro‘yxatga olinadi. Ushbu jurnal raqamlanadi, tikiladi, jurnalning so‘nggi sahifasida jurnalning sahifalari soni tasdiqlanib, yuqori turuvchi tashkilot rahbari tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

Tayyorlov kurslarida o‘qishning boshlanishi to‘g‘risida guruh shakllantirilishiga qarab tinglovchilar oldindan ogohlantiriladi.

12. Tayyorlov kurslarida o‘qish maxsus o‘quv reja va dasturga muvofiq tashkil etiladi. O‘quv reja va dastur oilaga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari asosida takomillashtirilib boriladi.

13. Tayyorlov kurslarida tinglovchilar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan kelishilgan va tasdiqlangan 72 soatlik o‘quv dasturi bo‘yicha bir oy davomida ishdan ajralmagan holda o‘qitiladi.

O‘quv yuklamasining eng ko‘p hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

4-bob. Tayyorlov kurslari tashkilotchilarining asosiy vazifalari

14. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi:

tayyorlov kurslari faoliyatiga o‘quv-metodik rahbarlikni amalga oshiradi;

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda tayyorlov kurslari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi hamda ularning yangilanib borishini ta’minlaydi;

tayyorlov kurslarini takomillashtirib boradi;

tayyorlov kurslariga o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini, ilg‘or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalarini joriy etadi;

tayyorlov kurslarida o‘qitish jarayoni monitoringini olib boradi.

15. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar:

ijtimoiy-huquqiy, psixologik-pedagogik, tibbiy masalalar bo‘yicha ma’ruzalar bilan ishtirok etishlari uchun tegishli mutaxassislarni tayyorlov kurslarining o‘quv mashg‘ulotlariga jalb etadi;

tayyorlov kurslariga yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar muammolaridan xabardor, bola ta’lim-tarbiyasi, sog‘lig‘i, qonuniy huquq va manfaatlari himoya qilish sohasidagi salohiyatli va tajribali (yurist, pedagog, psixologlar, tibbiyot mutaxassislari va boshqalar) xodimlarni kurs o‘qituvchisi sifatida jalb qiladi.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi bilan hamkorlikda:

tayyorlov kurslarining o‘quv-metodik asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirishga muntazam ravishda ko‘maklashadi;

markaz mutaxassislarini tayyorlov kurslarida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun jalb etadi;

tayyorlov kurslari o‘qituvchilarining yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ishlash masalalari yuzasidan malakasini oshirishini tashkil etishda amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatadi.

5-bob. Tayyorlov kurslarining o‘quv jarayonini tashkil etish va tinglovchilar bilimini baholash

17. Tayyorlov kurslari o‘quv reja va dasturlarini hisobga olgan holda, tinglovchilarni sifatli o‘qitish uchun moddiy-texnik baza hamda mutaxassislar tarkibi mavjud bo‘lgan holda tashkil etiladi.

18. Tayyorlov kurslarida o'quv mashg'ulotlari davlat tarbiya muassasa xodimlari hamda tayyorlov kursiga jalb etilgan mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

Zarur hollarda, tayyorlov kurslariga xorijiy mutaxassislar, shuningdek, bolani tarbiyalash bo'yicha ijobiy tajribaga ega bo'lgan tutingan ota-onalar ko'ngilli ravishda jalb etilishi mumkin.

19. Mashg'ulotlari interfaol tarzda olib boriladigan tayyorlov kurslarida o'quv mashg'ulotlari ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, ko'chma mashg'ulot, tajriba almashish shakllarida olib boriladi.

Tegishli axborot-metodik va tashkiliy-texnik baza mavjud bo'lgan taqdirda tayyorlov kurslari masofadan o'qitish usullari qo'llanilgan holda tashkil etilishi mumkin.

20. Auditoriyada o'tkaziladigan barcha mashg'ulotlar turlari 80 daqiqa davom etadi, o'quv mashg'ulotlari oralig'idagi tanaffus kamida 10 daqiqani tashkil etadi.

21. Tayyorlov kurslaridagi o'quv jarayoni guruhlarining to'ldirilishiga bog'liq holda tinglovchilar soni, qoidaga ko'ra, kamida 5 va ko'pi bilan 22 kishini tashkil etgan akademik guruhlarda tashkil etiladi.

Tashkil etilgan guruhlar tinglovchilarining davomati va o'zlashtirishini qayd etadigan guruh jurnali yuritiladi. Ushbu jurnal raqamlanadi, tikiladi, jurnalning so'nggi sahifasida jurnalning sahifalari soni tasdiqlanib, davlat tarbiya muassasasi rahbari tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.

Tutingan ota-onalar uchun tayyorlov kurslari kamida uch oyda bir marotaba tashkil etiladi.

22. Uzrli sabablar bilan o'qishni davom ettira olmaydigan tinglovchilar o'z arizasiga ko'ra tinglovchilar safidan chiqariladi. Uzrsiz sabablar bilan 30 soatdan ko'p hajmda mashg'ulotlarda qatnashmaganlik uchun kurslarning tinglovchilari davlat tarbiya muassasasi direktori buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chiqariladi.

23. Tayyorlov kurslarida mashg'ulotlar olib borish uchun o'qituvchilarni tanlashda bola va oilalar, jumladan, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlash tajribasiga hamda katta yoshdagilarni o'qitish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislar va xodimlarga ustunlik huquqi beriladi.

24. Tayyorlov kurslarida tinglovchilarning bilimi suhbat asosida baholanadi.

Tinglovchilarni baholashni tashkil etish va o'tkazish uchun davlat tarbiya muassasasi tomonidan tegishli sohalarning ilg'or mutaxassislari orasidan kamida 3 — 5 kishidan iborat komissiya shakllantiriladi.

25. Baholash jarayonida uzrli sabab bilan ishtirok etmagan tinglovchilar navbatdagi guruh tinglovchilari bilan birgalikda ishtirok etishlari mumkin.

26. Tayyorlov kurslarini tomomlagan tinglovchilarga ushbu Nizomga **ilovaga** muvofiq sertifikat beriladi.

27. Tutingan ota-onalarni tayyorlash kursidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning amal qilish muddati 3 yil qilib belgilanadi.

28. Amal qilish muddati tugagan sertifikat egalari tayyorlov kurslaridan qayta o'tishlari talab etiladi.

6-bob. Tayyorlov kurslari xodimlarining mehnatiga haq to'lash

29. Tayyorlov kurslarida o'quv mashg'ulotlari olib borgan davlat tarbiya muassasasi xodimlarining mehnatiga qo'shimcha haq to'lanmaydi.

30. Tayyorlov kurslariga jalb etilgan o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash amaldagi o'quv mashg'ulotlarini o'tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda ish haqi miqdori umumta'lim maktablarining oliy malaka toifali boshlang'ich va yuqori sinflari o'qituvchilarining bazaviy lavozim maoshi miqdoriga tenglashtiriladi.

31. Ko'ngilli ravishda tayyorlov kurslariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislar va tutingan ota-onalarga ish haqi to'lanmaydi.

7-bob. Tayyorlov kurslarini moliyalashtirish

32. Tayyorlov kurslarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni, shu jumladan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga jalb etiladigan mutaxassislar mehnatiga haq to'lash, kurslar

tinglovchilari uchun o'quv, tarqatma materiallar va kanselyariya anjomlarini xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish mablag'lari kurslar tashkil etilgan davlat tarbiya muassasalarining tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

8-bob. Yakunlovchi qoida

33. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Tutingan ota-onalarni tayyorlash to'g'risida nizomga ILOVA

Tutingan ota-onalarni tayyorlash kursidan o'tganligi to'g'risidagi SERTIFIKAT



**SERTIFIKAT
TK № 000000**

_____ (tinglovchining familiyasi, ismi, otasining ismi)
20___ yil _____ dan 20_____ gacha _____ da
_____ (Davlat tarbiya muassasasining nomi)
jami _____ soatli
_____ (kursning nomi)
bo'yicha tayyorlov kursini tugatdi.

Muhr o'rni
Tayyorlov kurs rahbari _____
Sana _____ Qayd raqami _____

Tutingan ota-onalarni tayyorlash kursidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikatning TAVSIFI

Tutingan ota-onalarni tayyorlash kursidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat A4 formatli oq qog'ozdagi varaqda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda, rasmlar tasviri uchun — yashil, ko'k, qizil ranglarda, fon uchun — och kul rangda bosib chiqariladi.

Varaqning chap qismida chetidan 10 mm chekingan holda eni 32 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 30 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri, past qismida esa — 35 mm o'lchamli ikkita kvadrat qo'shilishidan hosil bo'lgan sakkiz qirrali yulduz, yulduzning o'rtasida muhr uchun 25 mm diametrli oq aylana joylashgan.

Varaqning yuqori qismi markazida lotin yozuvi bilan davlat tilida "SERTIFIKAT" so'zlari bosiladi. Sertifikat ikki lotin harfi qisqartmasi — TK va olti raqamli sondan iborat tartib raqami bilan ta'minlangan. Barcha matn naqshli rastrdan iborat och kul rang fonda bosib chiqariladi.

Sertifikat:

bosib chiqarishning ikki usuli — ofset va yuqori usuli;

yorug'lik vositasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;

naqshli rastr;

har xil rangli rastrlardan foydalanish yo'li bilan turli ranglarni tashkil etish;

maxsus qog'ozlar;

o'zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo'llangan holda oltita himoyaga ega.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2019-y., 09/19/824/3835-son; 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)